



Dildora TUXTAYEVA,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti, Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Email: d.z.tuxtayeva@buxdu.uz

BuxDPI dotsenti f.f.n, H.O'. Yusupova taqrizi asosida

FRAZEOLOGIK BIRLIKLER: TOR VA KENG MA'NOLARDА

Annotatsiya

Ushbu maqolada jahon va o'zbek tilshunosligida olimlar tomonidan frazeologiya sohasida olib borgan tadqiqotlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, tilshunoslari tomonidan frazeologik birliklarning o'rganish obyektlariga turli tuman yondashuvlariga misollar keltirilib, maqol matal, aforizmlarni frazeologik birliklar bilan aynan bir xil til hodisasi deb qayt etilishining sabablari va ushbu tadqiqotlarni inkor qiluvchi fikr mulohazalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Frazeologik birliklar, frazeologiya, idoma, turg'un birikma, frazema, o'zgarmas so'zlar, so'z birikmasi, maqol, matal, aforizm, metafora, ko'chma ma'no.

PHRASEOLOGICAL UNITS: IN NARROW AND WIDE MEANINGS

Annotation

This article presents the research conducted by scientists in the field of phraseology in world and Uzbek linguistics. Also linguists provide examples of different approaches to the objects of study of phraseological units, analyze the reasons why proverbs, aphorisms are referred to as the same linguistic phenomenon as phraseological units and opinions that deny these studies.

Key words: Phraseological units, phraseology, idiom, set expression, phraseme, fixed words, collocation, proverb, saying, aphorism, metaphor, figurative meaning.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ: В УЗКОМ И ШИРОКОМ ЗНАЧЕНИЯХ

Аннотация

В данной статье представлены исследования, проведенные учеными в области фразеологии в мировой и узбекской лингвистике. Лингвисты приводят примеры различных подходов к изучению фразеологизмов, анализируют причины, по которым пословицы и афоризмы рассматриваются как одни и те же языковые явления наряду с фразеологизмами, а также обсуждают мнения, противоречащие этим исследованиям.

Ключевые слова: Фразеологические единицы, фразеология, фразеология, сложное выражение, фразема, фиксированные слова, разговор, пословица, поговорка, афоризм, метафора, образное значение.

Kirish. Frazeologiya (grekcha frazis-ifoda, logos-t'limot) XX asning boshlarida frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida o'rganila boshlangan. Frazeologiyaning umumnazariy masalalari dastlab fransuz tilshunosi Sh. Balli tomonidan o'rganilgan. Sh. Balli o'z asarlarida so'z birikmalarini sistemlashtirib, anglatgan ma'nolari va sintaktik o'ziga xosligidan kelib chiqadigan yaxlitligicha qo'llaniladigan turg'un birikmalarini frazeologizmlar deb ataydi. Sh. Balli frazeologizmlarni semantik hodisa deb qaraydi va semantik xususiyatini frazeologizmlarning mutlaq belgisi deb hisoblaydi [4]. Vinogradov frazeologiyaga lingvistik fan sifatida qaraydi. O'zining tadqiqotlarda frazeologik birliklar haqida ta'lomitni ilgari suradi [12].

D.F. Qayumovning ta'kidlashicha zamonaviy tilshunoshlikda frazeologiya termini ikki ma'noda ishlatalidi: birinchidan frazeologik birliklarni o'rganuvchi fan sifatida, ikkinchidan, tildagi birliklarning tarkibiy qismi sifatida. Tilning lug'at tarkibiga nafaqat so'zlar, balki, turg'un birikmalar ham kiradi [6].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Frazeologik birliklarni turli davrlarda turli olimlar tomonidan har tomonlama tadqiqot qilingan. Jahon tilshunoslida V.V. Vinogradov, Kunin, N.N. Amosova, A.U. Smirnitskiy va o'zbek tilshunoslida Sh.U.Rahmatullayev, M.E.Umarxo'jayev, A.E.Mamatov, B.Yo'ldoshev, K.T.Bozorboyev, G.I.Ergasheva kabi tilshunoslari sohaga katta hissa qo'shanlar va ular tomonidan frazeologik birliklarning grammatik, semantik funksional-uslubiy jihatlarini o'rganilgan.

Natijalar va muhokamalar. Hozirgi kunda biz frazeologik birliklarning o'zbek tili ingliz tilshunoshligida turli xil atamalar frazeologik birliklar (phraseological units), frazeologiya, (phraseology) (phraseologism), frazema (phraseme) ibora (idiom), set expression (turg'un birikmalar), o'zgarmas so'zlar (fixed

words) bilan ataymiz. Buning asosiy sabablari dan biri frazeologik birliklarga turli xil ta'riflar va qarashlar mavjudligidadir.

Jahon tilshunoslida olimlarning frazeologiya sohasida olib borgan tadqiqotlari tor va keng ma'noli anglashilganligi bilan bir qancha bahs munozalarga sabab bo'lib kelmoqda. Frazeologiyaning keng ma'noda tushunovchi olimlar frazeologik birliklarning tarkibiga maqollar, matallar, aforizmlarni kiritadilar, tor ma'nodagi frazeologiya tarafdarlari esa frazeologik birliklarni ko'chma ma'noli turg'un birliklarni o'rganish bilan cheklanadilar [12].

A.V. Kunin frazeologik birliklarni keng ma'noda tushuniib, uning obyektiga "murakkab ma'noli" barcha turg'un birikmalarini kiritadi. Ya'ni maqollarni ham frazeologik birliklarning obyektiga kiritadi. Ayit o'tilgan fikrga misol tariqasida tilshunos V.N.Teliya frazeologiya obyekti xususidagi fikrlarini umumlashtirir ekan, u quyidagi fikri ilgari suradi: ba'zi olimlar frazeologiyaning ichiga faqat ikki guruhni – idiomalar va frazeologik birliklarni kiritadilar, boshqalar maqollar va matallarni ham frazeologiyaning bir qismi deb hisoblaydilar. Bu guruhga ba'zida turli xil klishe, qanotli iboralar ham kiritiladi. Bu birliklarning hammasini bir xususiyat birlashtiradi: bir necha so'zdan iborat bo'lish va muloqotda ularga bo'lgan ehtiyojining kuchliligidir. Boshqacha qilib aytganda frazeologizmlar tarkibini tayyor holatda bo'lgan va avvaldan muloqotda ishlatalgan so'z birliklarni tashkil etadi [7].

Bundan tashqari boshqird tilshunosi Z.G.Uraksinning ilmiy ishlarida frazeologiya obyektni tor ma'noda tushunish tarafdoi ekanligi aks etgan. U o'zining "Boshqird tili frazeologiyasi" monografiyasida tayyor holda mavjud, takror qo'llanuvchi, a'zolari orasidagi o'zaro bog'lanishi turg'un va yaxlit ma'noli frazeologizmlarni tahlil qiladi, frazeologizmlarni turg'un birikmalarining bir qismiga kiritib va boshqa tipdag'i

turg'un birikmalardan obrazliligi bilan farqlari mavjudligini ko'rsatadi [11].

O'zbek tilshunosligida frazeologiya bo'yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borgan tilshunos Sh. Rahmatullayev quyidagi fikrni izohlaydi. Iboraga o'xshab ketadigan, shu sababli iboralar bilan bir qatorga qo'yib, frazeologiya doirasiga kiritib yuriladigan ba'zi boshqa hodisalar ham bor. Bular- maqol, aforizm, qanotli so'zlardir. Shu bilan bir qatorda Sh. Rahmatullayev ham frazeologiyani tor va keng tushunish tarafdarlariga to'xtalib, uning o'rganish obyektni tor tushunishni to'g'ri ekanligini takidlaydi [8]. Uning fikricha hodisalar orasida faqat tashqi o'xshashlikning bor bo'lishi ularni yagona sistemaga birlashtirish uchun yetarli asos bo'la olmaydi. Shuning uchun ham frazeologik birliliklar (iboralar) unga o'xshab ketuvchi hodisalardan farqlanishi lozim.

Ibora bilan maqol bir biriga o'xshash, ammo parallel hodisalardir. Maqol koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarning qisqa mazmundur ifodasidir. Maqol mazmunun voqealikka bevosita qaratilgan bo'lishi yoki majozga asoslangan bo'lishi mumkin. Maqol o'zi anglatayotgan voqealikka qarata ishlatalidi. Masalan, Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydmasang yuz hayda maqoli orqali yerni vaqtida haydash zarurligini anglatish maqsadida keltiriladi. Bunday maqollardan anglashilgan mazmun to'g'ri ma'noli turgun bog'lamlarni eslatadi.

Maqolga asoslangan tabiiy aynan o'zi anglatgan voqealikka nisbatan emas, balki o'xshash voqealikka nisbatan keltiriladi. Qo'shning ko'r bo'lsa, ko'zingni qis maqolida misolida maqol tarkibidagi so'zlarini hech kim to'g'ri tushunmaydi. Lekin "atrofingdag'i kishilar o'zini qanday tutsa, sen ham o'zingni shundy tut ulardan farqlanib qolma" kabi mazmun ifodalanadi. Bunday mazmun esa iborallardagi kabi gavdalanimi. Ammo ulardagi farq shundaki, iboradan anglashiladigan ma'noni, xuddi so'zdan anglashiladigan ma'nova kabi ta'riflash mumkin; maqoldan anglashiladigan mazmun esa tasviriy yo'l bilan ochiladi. Iboralarda ifodalanadigan ma'noda lug'aviy ma'nova bo'ladi, shuning uchun ibora lug'aviy birlilik hisoblanib, tilning lug'at boyligiga kiradi; maqoldan esa pand-nasihat, yo'l-yo'riq ko'rsatish yo'sinidagi umumlashma anglashiladi, u keng mazmunli va ixcham shaklli badiiy asar hisoblanadi.

Buni yana boshqa misollarda ham ko'rishimiz mumkin ko'rpasiga qarab oyoq uzatmoq- ibora, ko'rpannga qarab oyoq uzat - shu iboraning maqolga teng shakli; aravani quruq olib qochmoq- ibora, Aravani quruq olib qochma!- shu iboraning maqolga teng shakli; besh panja(si)ni og'z(i)ga tiqmoq – Besh panjangi og'zingga tiqma!; Temirni qizig'ida boshmoq- Temirni qizig'ida bos kabi.

Misollardan ko'rindiki, iboraning ma'lum bir shakli maqol ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ammo ularni bir biriga tenglashtirib bo'lmaydi. Mazkur misollar ibora va maqolning bir hodisa emas balki parallel hodisalar ekanligi ko'rsatadi.

Ularning yana bir farqi shundaki, maqollar o'z grammatik qurilishi jihatdan doim gapga teng bo'ladi, iborlarda esa bir xillik yo'q: ular ham birikmaga, ham gapga teng bo'la oladi. Sh. Rahmatullayev shu bilan birga ibora, aforizm va maqollarni taqqoslar ekan, turg'unlilik hodisasiga ham alohida to'xtalib o'tadi. Shu ikki narsani qorishtirmslik kerak: nutqqa tayyor holda kiritish talabi boshqa-yu, turg'unlilik belgisi boshqa. Aforizm aynan ko'chirma bo'lganligi tufayli hech qanday o'zgarishga yo'l qo'yilmaydi, ammo shu asosda uning tarkibidagi so'zlar

turg'unlik kashf etmaydi. Iboralar esa bu jihatdan har xil: o'zgarishga yo'l qo'ymasligi mumkin yoki ma'lum darajada yo'l qo'yishi mumkin. Ammo iboraning tarkibi qanchalik o'zgarmas, bunday o'zgarish, avvalo, til sistemasi yo'l qo'ygan doirada voqe bo'ladi, ikkinchidan, bunday o'zgarishlar iboraning turg'unlilikini buzmaydi, shu turg'unlik yo'l qo'ygan darajada amalga oshiriladi. Aks holda ibora yo'qqa chiqadi [8].

Tilshunos olim Ginzburg maqol, matal va sitatalarni frazeologik birliklardan farqlaydi. Va ularning farqi haqida iboralar nutqda tayyor holda mavjud va uning tarkibidagi so'zlarini o'zining mustaqil ma'nosini yo'qotib maxsus ma'no ifodalaydi degan fikrni aytilib o'tadi. Funksionalizm tarafdarlari maqollar frazeologik birliklarning sohasiga aloqador emas deb ta'kidlaydilar. Birinchi navbatda bunday birliklarning o'ziga xos alohida xususiyati mavjudligini ta'kidlab, frazeologizmlar asosan metaforaga asoslanadi masalan, to carry coals to Newcastle, to fall between two stools, or fine feathers make fine birds kabi iboralar misolida ko'radigan bo'lsak, ushbu birliklarning ma'nosini ularning tarkibidagi so'zlar ma'nosidan emas, balki uning umumiy metaforik ma'nosidan anglashilyapti deb hisoblaydilar [3].

Abdimurod Mamatovning fikriga ko'ra frazeologiyani "tor" va "keng" ma'noda tushunmaslik kerak, ya'ni uni bir ma'noda tushunish zarurligini aytadi. Uning fikricha frazeologizmlar qanday til birliklari deb tasnif qilinishidan qat'iy nazar, aforizmmi, maqol yoki matalmi, turg'un so'zlashuv formulalarimi, "qanotli so'zlarimi", xullas agar ular frazeologizmnning ta'rifiga mos tushsa, undagi talablarni bajara olsa, ya'ni tuzulishi jihatdan so'z birikmasi yoki gapga teng bo'lgan obrazli, umumlashgan ma'no anglatadigan leksik elementlari qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan lug'atlarda qayd etilgan har qanday turg'un birliklar frazeologik birliklar tarkibiga kiritilishi shart [7].

Berdiyorov va R. Rasulov paremiologiya va frazeologiyani bir birdan farqlab, paremiologiya frazeologiya bilan uzviy bog'liq ekanligini, "paremioliyga tilda turli xarakterdagi barcha frazeologizmlarini o'rgansa, frazeologiya uning bir qismi sifatida faqat ko'chma ma'noli turg'un birikmalarini o'rganishini qayd qilib o'tadilar [2]. Frazeologik birliliklar va paremiylarni qiyoshlashda tillararo lingvomadaniy farqlar yorqin ifodalanadi, zero frazeologiya milliy obrazlar, ya'ni turli xalqlarning madaniy konseptlari bilan chambarchars bog'liq [15].

L. Jafarovning tadqiqotiga ko'ra maqol va idiomalar matnda bir xil komponentlarga ega. Idioma va maqollar o'tasidagi asosiy farq shundan iboratki, idiomalar ham sintaktik hamda leksik jihatdan bir birida ajratilsa bo'ladi, maqollar esa frazeologik birlilik va idioma sifatida alohida qismiga bo'lingan holda ham ajratilsa va nutqda ishlatala olinadi [5].

Xulosa. Yuqrorda ko'rsatib o'tilgan izlanishlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, ibora, maqol, aforizmlarning umumiy xususiyatlaridan bu ularning nutq jaroyida yaratilmasligi ya'ni tayyor holda mavjudligi va turg'unlilik hodisasiidir. Shunday ekan ulardagi bu jihatlar ularni bir hodisa sifatida qarashga asos bo'la olmaydi. Chunki ularni bir birdan farqlovchi turli tuman belgilari mavjud. Xulosa qilib qilib aytadigan bo'lsak, maqol, aforizm, matalni frazeologik birliliklar bilan bir o'rinda bir xil xususiyatga ega birlik sifatida qarash haligacha o'z yechimini topgani yo'q. Frazeologik birliklarning boshqa til birliklaridan ajratib turuvchi farqlari haqida bahs, munozaralar davom etyapti va bu borada olimlar tomonidan turli izlanishlar olib borilmogda.

ADABIYOTLAR

1. Ashurova D.U, Galiyeva M.R.“Cultural linguistics”-Toshkent-2019.-70-74p
2. Berdiyorov H, Rasulov R, O'zbek tilining paremiologik lug'ati-Toshkent: O'qituvchi, 1982- 10b.
3. Ginzburg R.S. “A course in modern lexicology”. – Moscow: Moscow, 1979. – 80-83b.
4. Jumanazarova G., Boltayeva B., Qulboyeva D. Frazemalarning nutqda qo'llanishi-Toshkent: Turon zamin ziyo. 2017.-6 b
5. Jafarova L. Challenges in translating phraseological units//Academy publication. Theory and practice in language studies-German, 2016.-Vol 6.N7.-1345b.
6. Каюмова Д.Ф., Хрипкова Д.И. Лингвокультурная специфика фразеологических единиц с компонентом модальности // Вестник КазГУКИ. - Казань, 2016. - № 3. - С. 84.
7. Mamatov A.E. Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari- Tosh, 1991.-212 bet
8. Rahmatullayev Sh. “Nutqimiz ko'rki”- Fan nashriyoti: Toshkent-1970.- 30-33b
9. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati- Toshkent: O'qituvchi, 1978

10. Тухтаева Д., Иззатиллоева, С. (2024). Ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” konseptini ifodalovchi maqollarning milliy-madaniy xususiyatlari. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(S/1).
11. Ураксин З.Г. Фразеология башкирского языка. -М., 1975. -С. 22.
12. Виноградов В.В. “Лексикология и лексикография”.-М.:1977.-8-9с
13. Телия В.Н.“Русская Фразеология: семантический, pragmaticеский или лингвокультурологический аспекты” -М.:1996.- 107с.
14. Yo‘ldoshev B., Pardayev Z. “O‘zbek frazeologiyasidan materiallar”, 4 – qism, Samarqand.:Sug‘diyon nashriyoti, 1997
15. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики.- Т.: Фан, 2007. - 67с.)
16. Zokirovna T. D., Norboboyevna T. G. (2021). The comparative analysis of english and uzbek phraseologies representing human intellectual+ abilities in semantic field. Евразийский журнал академических исследований, 1(9), 438-442.